



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4403,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 135,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2419,2 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4403,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,0 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




## 2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




*Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3552,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.*

## 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (118,6 mlrd.so'mga), savdo xizmatlari (111,0 mlrd.so'mga), moliyaviy xizmatlar (62,3 mlrd.so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (27,1 mlrd.so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi**



## Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari – 1233,6 mlrd.so'm, savdo xizmatlari – 1201,0 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar – 1085,0 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar – 583,0 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 300,9 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlарini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 583,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 135,1 % ni tashkil etdi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**




Moliyaviy xizmatlar umumiylida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,8 %) katta salmoqqa egadir.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1201,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 27,3 %ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 268,5 mlrd.so'mga oshdi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida  
savdo xizmatlari tarkibi, %**




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,4 %ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 7,6 %ni egallaydi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (135,1%), ta'lif sohasidagi xizmatlar (122,8%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,0%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,5%) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4403,5</b>	<b>108,5</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	300,9	111,5
moliyaviy xizmatlar	583,0	135,1
transport xizmatlari	1233,6	103,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1184,4	102,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	106,1	103,7
savdo xizmatlari	1201,0	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	147,6	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	193,8	122,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	79,8	112,0
ijara xizmatlari	103,0	107,6
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	160,7	105,3
shaxsiy xizmatlar	137,6	102,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	44,8	104,2
boshqa xizmatlar	111,6	108,1

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4403,5</b>	<b>108,5</b>
Urganch shahri	2135,2	115,2
Xiva shahri	142,8	105,0
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	203,8	102,1
Gurlan	214,3	101,8
Qo'shk o'pir	184,8	101,0
Urganch	362,3	106,1
Hazorasp	288,7	102,2
Xonqa	219,5	104,2
Xiva	149,2	102,0
Shovot	192,5	101,8
Yangiariq	164,7	101,9
Yangibozor	145,9	101,9

Tumanlar o'ttasida Urganch shahri (2135,2 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 115,2 %ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Xiva shahri (142,8 mlrd.so'm), Yangibozor tumanida (145,9 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (149,2 mlrd. so'm ) kuzatildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (115,2 %), Urganch tumanida (106,1 %) va Xiva shahri (105,0 %) qayd etildi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**

